

## IDROKNING ILLUZYASI

**Sattorova Jasmina Nurmuhammad qizi**

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti tibbiyot talabasi

Email: [jsattorova01@gmail.com](mailto:jsattorova01@gmail.com)

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

**Shodiyeva Nodira Normamatovna.**

Pedagogika va texnologik ta'lim kafedrası o'qituvchisi

Email: [shodiyevan22@gmail.com](mailto:shodiyevan22@gmail.com)

### Annotatsiya

Mazkur maqolada idrokning illuziyasi fenomeni psixologiya va kognitiv fanlar nuqtayi nazaridan ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Idrok — inson tomonidan tashqi olam haqidagi axborotni sezgi organlari orqali qabul qilish, qayta ishlash va talqin etish jarayoni bo‘lib, ushbu jarayonda ayrim obyektiv omillar hamda subyektiv tajribalar ta’sirida real voqelikning noto‘g‘ri aks etishi illuziyalarni yuzaga keltiradi. Maqolada illuziyalarning kelib chiqish sabablari, ularning fiziologik, psixologik va neyropsixologik mexanizmlari yoritiladi. Vizual, auditor va harakatga oid illuziyalar misolida idrok jarayonidagi xatoliklarning tabiati ochib beriladi. Shuningdek, idrokning illuziyasi shaxs faoliyatiga, qaror qabul qilish jarayoniga va ta’lim-tarbiya tizimiga ko‘rsatadigan ta’siri tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari idrok jarayonlarini chuqurroq tushunishga hamda psixologik tadqiqotlar va amaliyotda illuziyalarni hisobga olish zarurligini asoslab beradi.

**Kalit so‘zlar;** illuziya, stroboskopik harakat, induksion harakat, yoyilishi,

### Аннотация

В данной статье явление иллюзии восприятия научно анализируется с точки зрения психологии и когнитивных наук. Восприятие – это процесс получения, обработки и интерпретации человеком информации о внешнем мире через органы чувств, и в этом процессе под влиянием некоторых объективных факторов и субъективных переживаний ложное отражение реальной действительности создает иллюзии. В статье описаны причины возникновения иллюзий, их физиологические, психологические и нейropsихологические механизмы. Характер ошибок в процессе восприятия раскрывается на примере

зрительных, слуховых и двигательных иллюзий. Также анализируется влияние иллюзии восприятия на деятельность личности, процесс принятия решений и систему образования. Результаты исследования подтверждают более глубокое понимание когнитивных процессов и необходимость учета иллюзий в психологических исследованиях и практике.

**Ключевые слова;** иллюзия, стробоскопическое движение, индукционное движение, распространение

### **Abstract**

In this article, the phenomenon of perceptual illusion is scientifically analyzed from the point of view of psychology and cognitive science. Perception is the process of receiving, processing and interpreting information about the external world by a person through the senses, and in this process, under the influence of some objective factors and subjective experiences, a false reflection of reality creates illusions. The article describes the causes of illusions, their physiological, psychological and neuropsychological mechanisms. The nature of errors in the process of perception is revealed using the example of visual, auditory and motor illusions. The influence of the illusion of perception on the activity of the individual, the decision-making process and the education system is also analyzed. The results of the study support a deeper understanding of cognitive processes and the need to take illusions into account in psychological research and practice.

**Key words;** illusion, stroboscopic motion, induction motion, propagation

Psixologiyada idrok degan tushuncha mavjud bo‘lib insonning hayoti davomida dunyodagi narsa va hodisalarni tushunishida anglab yetishida idrokning o‘rni beqiyosdir. Jarayonlarni anglashda psixik hodisalarni ongimizda samarali va normal holda aks etishida, albatta idrokning o‘rni muhimligi jihatdan asosiy pog‘onani egallaydi.

Idrok xususiyatlari;

Idrok o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan hissiy bilishning sifat jihatidan yangi bosqichidir. Idrokning predmetligi, yaxlitligi, ma‘lum tartibda tuzilishi, konstantligi va anglanganligi uning eng muhim xususiyatlaridandir. Idrokning predmetligi obyektivlash deb atalgan vaqtda, ya‘ni tashqi olamdan olingan ma‘lumotlarni shu olamning o‘ziga qaratishda ifodalanadi. Idrokning predmetligi tug‘ma sifat hisoblanmaydi. Subyektga olamning predmetligini ochib berishni

ta'minlaydigan ma'lum harakatlar sistemasi mavjuddir. Predmetlilik idrokning sifati tarzida ish-harakatlarni boshqarishda alohida rol o'ynaydi. Tashqi olamdan olingan ma'lumotlarni ana shu olamning o'ziga solishtirib ko'rish idrok obrazining real predmetlarga adekvat (mos) ekanligini nazorat qilishni ta'minlaydi. Idrokning yana boshqa xususiyati uning yaxlitligidir. Idrok sezgi a'zolariga ta'sir qiluvchi narsalarning ayrim xususiyatlarini aks ettiruvchi sezgilardan farq qilib, narsalarning yaxlit obrazidir. O'z-o'zidan ravshanki, bu yaxlit obraz har xil modeldagi sezgilar orqali olingan narsalarning ayrim xususiyat va sifatlari haqidagi bilimlarni umumlashtirish asosida vujudga keladi. "Idrokning muhim xususiyatlaridan biri barqaror (konstant)ligidir. Inson bir vaqtda idrok qilgan narsani o'z xotirasida saqlab qolish va uni qayta tiklash qobiliyatiga ega. Bir narsaning ana shunday qayta tiklangan timsoli (qarang Tasavvur) idrok jarayonining ajralmas qismi. Idrokning xususiyati ko'p jihatdan hissiy kechinmalarga (shodlik, g'amginlik, tajanglik va h.k.) ham bog'liq. Masalan, kishining ta'bi xira vaqtida tabiat manzaralari unga allaqanday so'niqdek ko'rinsa, ta'bi chog' vaqtida u butunlay boshqacha ko'rinadi." Idrokning buzilishi insonda ko'plab kasalliklarni keltirib chiqaradi. Buni patalogik holatlarda; illuziya

**Illyuziya** (lotincha *illysio* – xato, adashish, yanglishish) – tana a'zolarimizga bevosita ta'sir etib turgan narsa va hodisalarni noto'g'ri (noadekvat) idrok qilishdan iborat bilish jarayoni. Ba'zan psixologiyada noto'g'ri idrok qilishga olib keladigan qo'zg'atuvchilar konfiguratsiyasining (lotincha *configyratio* – tashqi tuzilishda o'xshashlik, o'zaro o'xshash, yondosh joylashuv) o'zi ham illyuziya deb ataladi. Illyuziya ko'p hollarda ko'zning chalg'ishi bilan bog'liq. Bu xil illyuziyalar optik illyuziya deyiladi. Optik illyuziya muayyan sharoitda turli kesmalar uzunligi, burchaklar kattaligi, narsalar o'rtasidagi masofalar va shu kabilarni o'zaro taqqoslanganda kuzatiladi. Bu xil illyuziyalar turmushda ko'p uchraydi. Shuningdek, eshitish billyuziyasi (birovning nutqidagi ayrim so'zlar boshqacha bir ma'noda aytilgan so'zdek eshitiladi), harakat illyuziyasi (poyezd juda ham tez yurganda vagondagi kishiga go'yo u harakat qilmayotgandek tuyiladi) va boshqa insondagi psixofiziologik, ko'pincha hayajonlanish, charchash, qo'rqish holatlarida ro'y beradigan subyektiv illyuziyalar. Masalan, o'rmondagi to'nka qo'rqoq odamning ko'ziga bironta yirtqich qayvonga o'xshab ko'rinadi."

Aksariyat illyuziyalar ko'rinadigan harakatlar bilan bog'liq, chunonchi:


1) qorong'ulikda harakatsiz yorug'lik manbaida nurlarning tartibsiz tarqalishi (yoyilishi);

- 2) fazoviy jihatdan yaqin joylashgan ikki harakatsiz stimulning tez sur'atlar bilan namoyon etib turishi harakat taassurotini vujudga keltiradi (stroboskopik harakat);
- 3) harakatsiz obyektini uni qurshab turgan fonga qarama-qarshi yo'nalishga qo'yish harakat tuyg'usini paydo qiladi (induksion harakat).

**Illuyuziya** – bizga ta'sir qilayotgan narsalarni yanglish idrok qilish demakdir degan ta'rifni berib o'tishgan bo'lsa “Umumiy Psixologiya” darsligida (F.I.Xaydarov N.I. Xalilova) ham xuddi shu misolni keltirilgan. Yana bir adabiyotga murojaat qiladigan bo'lsak idrokda illuziyani navbatdagi ta'rifini uchramiz. Ba'zi hollarda narsalar noto'g'ri, yanglish idrok etilishi mumkin. Narsa va hodisalarning bu tariqa noto'g'ri idrok qilinishi illuziya deyiladi. Kengroq illyuziya haqida juda ko'p misollar orqali tushuntirib yetkazib berilgan. Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak Aristotel (Arastu) illyuziyasi haqida ham so'z borgan bo'lib u shunday ma'noni beradi. Masalan, biz ko'rsatkich va o'rta barmoqlarimizni chalishtirib, no'xat yoki bironta dumaloq narsani chalishtirgan holda ikkala barmog'imizning uchi bilan bosib turib, shuningdek ayni bir davrda aylantiraversak, bu holda barmoqlarimizning tagida bitta emas, balki ikkita no'xat bordek his qilamiz. Ana shu holdagi bir narsaning ikkita bo'lib sezilishi Aristotel (Arastu) illyuziyasi deb ataladi. Bu holat sog'lom, normal insonda deyarli shunday kechadi. Uyda qorong'u xonadagi predmetni ko'rish sezgisi noto'g'ri yani to'liq idrok eta olmaganligi sababli xona derazasiga osilgan pardalarni kimningdur sharpasiga o'xshatiladi va shaxsda qo'rquv hissi paydo bo'la boshlaydi, lekin chiroqni yoqish orqali u aslida oddiy parda ekanligini ko'rish retseptori bilan to'liq idrok qilinadi. Bu holat barchada kuzatiladigan holat hisoblanadi, masalan bolalarda esa xonadagi kiyim ilgichda ilinib turgan kiyimlarni qorong'uda ko'rishganida idrokida ijodiy hayolning ta'sirida qo'rqinchli hayvonlarni tasavvur qilib qo'rquv holatini idrok qiladilar bu holat normal insonda ham uchraydi. Ko'rish illyuziyaning patologik turlari: Idrok obyektini ma'lum darajada o'zgarish xususiyatiga ega bo'lgan maxsus ko'rish illyuziyalari Derealizatsion buzulishlar deb nomlanadi. Ularga mikropsiya - atrofdagi predmetlarni hajmi o'lchovini kichiklashish bilan tavsiflanuvchi idrok buzilishi, makropsiya- atrofdagi predmetlarni hajmi o'lchovini kattalashishi bilan tavsiflanuvchi idrok buzilishi, dismegalopsiya - atrofdagi narsa va predmetlarning o'sishi, kengayishi hamda buzilishi bilan tavsiflanuvchi idrok buzilishi va yana bir turi porropsiya deyiladi bunda biron bir obyektning masofasi uzayadi yoki qisqargandek tuyiluvchi idrokning buzulishlari. Mazkur holatlar idrokning patologiyasi deyiladi degan fikrlarni berganlar. Bu holatlar insonda kuzatilsa, demak uning idrokida


buzulishlar ya'ni patologik holatlar ketayotganidan dalolat beradi va bu holatlar sog'lom insonda deyarli uchramaydi. Surat orqali illyuziyani ko'ramiz.

1-rasmda aylanalarning qarama qarshi tomonga aylanayotganini idrok qilinadi bu oddiy harakatsiz vizual illyuziya holos.



### 1-rasm

2-rasmda kataklarning harakatlanayotganligini ko'rish mumkin aslida esa u ham oddiy harakatsiz rasm bo'lib bu rasmlar illyustrator rassomlarning mohir san'atidan bir qism hisoblanadi. Bu turdagi suratlar idrokni chalg'ituvchi suratlardan boshqa narsa emas. Bu rasmlarni inson ko'rganida unda qandaydir charchoq va holsizliklar mavjud bo'lmaydi. Bu rasmlarni hammasi oddiy illuziyalar holos.



## 2-rasmda

Illyuziyaga misol tariqasida temir yo‘l o‘rtasida turib uni kuzatsak, har ikkala chiziq bora-bora bir-biri bilan qo‘shilib yoki kesishib ketgandek tuyuladi, vaholanki, ular hech qachon bir-biri bilan kesishmaydigan parallel chiziqlardir. Quyoshning Yerga nisbatan munosabati ham xuddi shunday noto‘g‘ri idrok qilinadi. Sarob hodisasi illyuziyaning yana bir ko‘rinishidir. Idrok hodisasi ko‘ruv, eshituv, harakat idroki kabi hodisalarga xosdir. Masalan, osmondagi samolyotning, uzoqdagi avtomobilning harakatlari inson tomonidan noto‘g‘ri idrok qilinishi tufayli joyidan qo‘zg‘almayotgandek tuyuladi. Allaqanday tovush va sharpalarning eshitilishi eshitish illyuziyasi deyiladi.

## Xulosa

Xulosa qilib aytganda, idrokning illuziyasi inson psixikasining murakkab va ko‘p qirrali jarayon ekanligini namoyon etadi. Illuziyalar tashqi muhitni qabul qilish jarayonida sezgi organlari, avvalgi tajriba, kognitiv sxemalar hamda fiziologik omillarning o‘zaro ta’siri natijasida vujudga keladi. Ular inson tomonidan voqelikning

obyektiv aks ettirilmasligiga sabab bo‘lib, idrok jarayonida muayyan xatoliklarning yuzaga chiqishiga olib keladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, idrok illuziyalari faqatgina vizual soha bilan cheklanmay, eshitish, harakat va makon idrokida ham kuzatiladi. Ushbu holat inson faoliyatiga, xususan, qaror qabul qilish, baholash va xulq-atvor jarayonlariga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi. Shu bois idrokning illuziyasini o‘rganish psixologiya, pedagogika va kognitiv fanlar uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Illuziyalar mexanizmlarini anglash ta‘lim jarayonini samarali tashkil etish, psixologik xatoliklarning oldini olish hamda inson ongining ishlash qonuniyatlarini chuqurroq tushunishga xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://zenodo.org/records/10605241/files/Nuraliyeva%20Sora.pdf?download=1>
2. <https://cyberleninka.ru/article/n/idrokning-hususiyatlari-va-patologiyasi>
3. ChatGPT